

O'ZBEK, NEMIS VA RUS MAQOLLARIDA MILLIY MENTALITET VA
MILLIY XARAKTERNING IFODALANISHI

Bozorova Gulmira Maxamadaliyevna

*Andijon davlat chet tillari instituti Nemis tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis, o'zbek va rus tillaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlili, ularda milliy mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi, tarjimadagi o'ziga xos muammolar va ularning yechimi borasida so'z ketgan

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, maqol, matal, kontent, paremik janr, komponent tahlil, mazmun, butunlik, mentalitet

Abstract: This article deals with the analysis of linguistic and cultural features of German, Uzbek and Russian proverbs and sayings, specific problems in translation and their solutions

Key words: linguistic and cultural studies, proverb, language, content, paremic genre, component analysis, content, wholeness

Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, millatlarning o'ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so'z ochmay ilojimiz yo'q, albatta. Chunki xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. Ilmiy ishimizning ushbu qismida o'zbek, nemis va rus tillaridagi ayrim maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, xalqning o'ziga xos milliy urf-odatlarini, kundalik turmush tarzidagi o'ziga xos milliy xarakterning ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Asosan har bir tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko'proq farqli tomonlarini o'rganib, o'zaro o'xshash tomonlarining umumiy jihatlarini kerakli manbalardan foydalangan holda ifodalashga harakat qilamiz.

Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi.

Mashhur tilshunos Dal aytganidek, maqollar to'plami bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati.¹

Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi.

Mentalitet tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda

¹ Породоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

I son, Dekabr

mentalitet □ fikrlash doirasi, dunyoqarash □ mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa □ xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi □²

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet □ bu □ xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma □ naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir □. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu □ milliy xarakter □ xalqning dini, siyosati, urf □ odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq. Nemis tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, nemis xalqining xarakteri haqida so'z yuritmay ilojimiz yo'q. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari tartibliligi, rostgo □ yligi va mehnatsevarligi bilan ajralib turadi. Yevropada nemislardan ham o'tgan mehnatsevar xalq topilmaydi. Germaniya madaniyatida ishga va ishchilarga bo'lgan munosabat qadrlanadi. Bu jihat maqollarida ham ko'rinadi:

Nemischa: Wer nicht arbeitet, soll auch nicht essen.

Ruscha ekvivalenti: Кто не работает, тот и не ест

O'zbekcha ekvivalenti: Ishlamagan-tishlamaydi

Nemischa: Erst die Arbeit, dann das Vergnügen.

Ruscha ekvivalenti: Сделай дело, гуляй смело

O'zbekcha tarjimasi: Avval ish, keyin o'yin

Nemischa: Ordnung ist das halbe Leben.

Ruscha ekvivalenti: Порядок – это половина жизни.

Порядок – душа всякого дела.

O'zbekcha tarjimasi: Tartib- yarim hayot

Nemischa: Morgenstunde hat Gold im Munde.

Ruscha ekvivalenti: Утренний час подаёт (преподносит) золото.

Утренняя заря золотом осыпает. Кто рано встаёт, тому Бог подаёт

O'zbekcha ekvivalenti: Saharda qilingan ishda baraka bor.

Erta turgan kishini-Xudo o'nglar ishini

O'zbekcha tarjimasi: Ertalabki vaqtning og'zida oltini bor.

Nemischa: Ein reicher Bauer kennt seine Verwandten nicht.

Ruscha ekvivalenti: Богатый крестьянин не знает свою родню.

Залез в богатство, позабыл и братство.

O'zbekcha tarjimasi: Boy dehqon qarindoshlarini tanimaydi.

Ko'rib turganingizdek ushbu nemischa maqolning o'zbekcha tarjimasida kambag'al bo'lib yashab, keyin boyib ketgan va yaqinlarini unutib qo'ygan kishi qoralanyapti. Ya'ni

² Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – М., 1995. – 232 с.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

I son, Dekabr

boyib ketgandan keyin yaqinlari bilan yaxshi munosabatda bo'lmaydigan toifadagi insonlar uchala xalqda ham uchrar ekan.

Nemislar xarakterining asosiy xususiyatlarini tahlil qilgan nemis shifokori va psixologi Villi Xelpax (1877-1955) o'zining „Deutsche Charakter“, ya'ni, „Nemis xakteri“ kitobida nemislarga xos barqaror milliy xususiyatlarni sanab o'tadi:

1. Schaffensdrang – ijodiy faoliyatga chanqoq
2. Gründlichkeit – puxtalik
3. Ordnungsliebe – tartibsevarlik
4. Eigensinn: Dickschickheit – o'y fikrida qat'iy turish, o'jarlik
5. Verträumtheit - xayolparastlik

Nemis madaniyati uchun asosiy tushuncha bu – tartib. Germaniyada oilaviy hayot, biznes, hukumat, bo'sh vaqt, maktab hayoti, hammasi ushbu xususiyatga bo'ysunadi. Nemislardagi – tartib – tushunchasi chet elliklarni doimo hayratga solib kelgan. Nemislar o'zlarining tezkorligi, tashkilotchiligi, intizomi, ozodaligi va punktualligi bilan faxrlanadilar. Zero, tartib nafaqat ozodalik, balki to'g'rilik, odob, maqsad va boshqa ko'plab ijobiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Hech qaysi ibora „Alles in Ordnung“ - Hammasi joyida – Всё в порядке - iborasichalik nemislar qalbini isita olmaydi. Har bir nemis o'rniga qo'yadigan oltin qoida: «Ordnung muss sein», - «Порядок превыше всего», ya'ni, „Tartib hamma narsadan ustundir“.

- Ordnung, Ordnung, liebe sie, sie erspart dir Zeit und Mühe'. - Люби порядок, он бережёт твоё время и твои силы. - Порядок – душа всякого дела. - Tartibni sev, u sening vaqtingni va kuchingni tejaydi.

- Ordnung ist das halbe Leben.- Порядок – это половина жизни. Порядок время бережёт. - Tartib yarim hayotdir.

Nemislarning yana bir ajoyib xususiyatlari ularning pulga nisbatan aniqligi va tejamkorligidir. Ular „Sparen“ – tejamoq fe'lini yoqtirishadi. Va bu tejamkor bo'lish kerak ekanligini anglatadi. Nemislar uchun qimmatbaho sovg'alar berish odatiy hol emas. Muhimi sovg'alar yoqimli va qadrli bo'lishi kerak.

- Sparen ist verdienen – экономить значит зарабатывать – Tejog'lik ish-bejog'lik ish.

- Wer den Pfennig nicht spart, kommt nicht zum Groschen – Копейка рубль бережет.- Tiyin qadrini bilamagan, so'm qadrini bilmas

- Spare was, dann hast du was – Сэкономить сначала, поймёшь потом.- Tejasang, orttirarsan.

- Richtige Rechnung macht gute Freundschaft. - Верный счёт налаживает крепкую дружбу. – Hisobli do'st ayrilmas.

Shuningdek, nemislarga xos yana bir jihat – bu ularning vaqtni nihoyatda qadrlashlari, hamma narsani o'z vaqtida bajarishlari va bolalarini ham shunga o'rgatishlaridir.

Masalan:

- Zeit ist Geld – Время – денежки. – Vaqt aqchadur, g'ofil bo'lma, qochadur

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

I son, Dekabr

- Alles hat seine Zeit – Всему своё время - Har narsaning o'z vaqti bor
- Die Zeit ist der beste Arzt - Время лечит.- Vaqt – eng oliy hakam.
- Man muss sich nach der Zeit richten, die Zeit richtet sich nicht nach uns – Не время

равняется на нас, а мы на время – Zamon senga boqmaydi, sen zamonga boq

- Wer zu spat kommt, den bestaft das Leben – Kech qolgan armon qilar
- Wer zuerst kommt, mahlt zuerst – Oldin otlangan manzilga oldin borar

Rus xalqiga xos bo'lgan milliy xarakter xislatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Rossiyaning bepoyon yerlari, ayrim boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, siyosiy parchalanishlarning yo'qligi, xo'jalik taraqqiyotidagi o'ziga xos xususiyatlarning barchasi, Gertsen aytganidek qaysh-ishratni yaxshi ko'radigan, bag'ri keng rus kishisini, yakka xo'jalik yurgizishga moyil bo'lmagan, bir parcha yeriga yopishib olmagan rus dehqonini yaratdi.

- Землю солнце красит, а человека-труд
- Там и хлеб не родиться, где кто в поле не трудится
- Земля труд любит
- Без труда не вынесишь и рыбку из пруда.
- Век живи – век учись
- Не всегда коту Масленица

Rus tilida Волков *бояться – в лес не ходить* degan maqol bor. O'zbeklarda obrazli asosi *bo'ri* nomidan iborat aynan shunday maqol yo'q, lekin xuddi shu ma'noda aytilgan boshqa bir qancha muqobil variantlar bor. Masalan, *Chigirtkadan qo'rqqan ekin ekmas; Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas*. Ruslarda shunday maqolning obrazli asosi *bo'ri* so'zidan tashkil topsa, o'zbeklarda *chigirtka*, *chumchuq* so'zlari asosida tuzilganidir. Shunday qilib, turli xalqlarda bir xil ma'noni anglatadigan maqollarga turli hayvon yoki parrandalarning nomlari vosita qilib olingandir.³

O'zbek xalqining eng sevimli mavzularidan biri farzandlar, bolalar haqidagi maqollardir. Chunki o'zbeklar bolajon xalq bo'lib, ona va bolaga bo'lgan e'tibor ahamiyatga molik:

- Ona bilan bola qul bilan lola.
- Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor.
- Bolamning bolasi qandin o'rik donasi.

Ona va bola haqidagi maqollardan nafaqat kundalik turmushda, balki yozuvchilarning asarlarida ham keltirishimiz mumkin.

O'zbek xalq maqollaridagi mentalitet tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo'stlik to'g'risida eslamay bo'lmaydi. Maqollarimizda mehmonga bo'lgan hurmat, bag'rikenglik yaqqol ko'rinib turadi. Misol uchun:

- q Mehmon q atoyi xudo.
- q Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

³ G'. Salomov. "Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarini tarjima qilish masalasiga doir. – O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, T: 1961-yil

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

I son, Dekabr

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, □qaynona□ va □kelin□ obrazlari faqatgina o'zbek maqollariga xosdir. Ya'ni, nemis va rus xalq maqollariga nisbatan aynan o'zbek maqollarida bu mavzu ko'proq yoritiladi. Buning sababi o'zbek xalqi bu munosabatlarga ancha jiddiyroq yondashganidadir.

Masalan:

- Kelin bo'ldim □ qaynonamga yoqmadim, qaynona bo'ldim □ kelinimga yoqmadim.
- Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.

Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o'zbek maqollarida ko'proq uchraydi desak yanglishmaymiz. Chunki asrlar davomida ota bobolarimizdan kelayotgan bu kabi fazilatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Isbot uchun quyidagi maqollarni keltiramiz:

- Andishaning oti qo'rqq.
- Sharmsizlik □ sharmandalik nishoni.

O'zbek xalqi nonni juda e'zozlaydi. O'zbek xalqining ayollari xamir qorib, tandir-tandir non yopadi. Kundalik turmushda bu holatning necha ming yillardan beri takrorlanib keladi. Buning ishtiroki o'zbek xalq maqollarida ko'p kuzatiladi.

- Non mo'lligi □ el to'qligi.
- Nonga hurmat □ elga hurmat.

Maqollardagi milliy koloritni ta'minlaydigan yana bir obraz □ bu o'sha xalq taomlaridir. Masalan:

Rus tilida:

- Не наша еда орехи, а наша – каша
- Гречневая каша-мать наша, хлебец-кормилец
- Щи поел-словно шубу надел

O'zbek tilida:

- Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.
- Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye,
- Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye.

Ko'rib turganingizdek o'zbek xalqining eng sevimli milliy taomlaridan biri bo'lmish **“palov”** maqollarda o'z ishtirokini topa olgan. Sababi bu taom o'zbek xalqi tomonidan eng sevib iste'mol qilinadigan tomlar sirasiga kirishidadir. Rus xalq maqollarida **“каша (bo'tqa)”** va **“Щи (karam sho'rva)”** ko'proq ishlatiladi. Bu taomlar rus xalqining sevimli taomlaridan bo'lib, kundalik hayotda ko'proq iste'mol qilinishi sababli maqollar tarkibida uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y□ fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l □ atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

I son, Dekabr

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat qayg'isi kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev. Sh. M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. 15.06.2017-yil.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" I tom. -Toshkent.: 1960.
5. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961.
6. Ўзбек халқ мақоллари. Нашрга тайёрловчилар: Афзалов М., Худойберганов С., Иброҳимов С. – Т.: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1958.
7. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
8. Ўзбек халқ мақоллари. I жилд (А-О) – Т.:Фан, 1987
9. Ўзбек халқ мақоллари. II томли. –Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти, 1988
10. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
11. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012
12. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi – Toshkent, 2013
13. Саломов Ғ. Мақол ва идиомалар таржимаси.– Тошкент, 1961.
14. Sodiqova M. 1-qism; ruscha va o'zbekcha maqol va matallar lug'ati; 2- qism o'zbekcha- ruscha maqol va matallar lug'ati. -Т.: "Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 2005
15. В. А. Маслова. Лингвокультурология: Учебное пособие. -М.: Издательский центр «Академия», 2001.
16. Подгорная Л.И. Русские пословицы и поговорки и их немецкие аналоги. - Санкт-Петербург: КАРО, 2001
17. Lutz Röhrich. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg-1992
18. Karl Friedrich Wilhelm Wander. Deutsches Sprichwörter-Lexikon.
19. Булатов МА. Русские пословицы и поговорки. М., 1949
20. Шалагина В.К. Немецкие пословицы и поговорки. М., 1962
21. Махамдалиевна, В. G. (2024). VATANGA OID MAQOLLARNING NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA LEKSIK-KOLLEGIK VA QIYOSIY TAHLILI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 191-195.
22. Махамдалиевна, Bozorova Gulmira. "NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOL VA MATALLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILIGA DOIR." PEDAGOG 7.9 (2024): 127-130.

FOYDALANILGAN LUG'ATLAR:

1. Бердиёров Х, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 232 б.

2. Маъруфов Т. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Москва.: «Рус. язык», 1981, – 520 б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили этимологик луғати (туркий сўзлар). -Тошкент: Университет, 2000. – 402 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати II/ араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Т.: Университет, 2003. – 335 б.
5. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли луғати. Т., 1990. – 523 б.
6. Hojiyev A., Nurmonov A. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. □ Т.: Sharq, 2001.
7. Tursunoy, Q., & Gulmira, B. (2024). FONEMA NAZARIYASI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(2), 205-207.
8. Obidovna, F. M., & Gulmira, B. (2024). NEMIS TILI FONEMALARI, ULARNING SONI, NUTQDAGI VAZIFASI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(2), 149-152.
9. Bozorova, G. M. (2024). NEMIS TILI FONEMALARI, ULARNING SONI, NUTQDAGI VAZIFASI. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 147-151.
10. Maxamadaliyevna, B. G. (2024). VATANGA OID MAQOLLARNING NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA LEKSIK-KOLLEGIK VA QIYOSIY TAHLILI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 191-195.
11. Buronov, N., & Shog'ulomov, D. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS. In European Scientific Conference (pp. 25-26).

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php>.
2. ziyo.net
3. maqollar.uz
4. www.studopedia.su/4_9145_Linguokulturologie-als-interdisziplinaumre-Wissenschaft-Das-Linguokulturem.html
5. <https://www.t.-online.de>
6. <https://sprachenzentrum.uni>
7. refseek.com
8. worldcat.org
9. science.gov
10. pdfdrive.com
11. base-search.net
12. education.iseek.com